

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliyana Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужонпоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbayeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026**Accepted:** 17 January 2026**Published:** 30 January 2026*Article / Original Paper***ANALYSIS OF GENERAL AND SECTOR-SPECIFIC LEGAL DOCUMENTS
DEFINING THE PREVENTION OF OFFENSES****Tillayev Ikrom Rustamjonovich**

Independent Researcher

at the Institute of Criminological Research of the Republic of Uzbekistan

E-mail: info@iibb.uz

Abstract. This article provides a systematic analysis of general and sector-specific legal documents that define the prevention of offenses. The author scientifically demonstrates that the effectiveness of preventive activities depends, first and foremost, on correctly establishing its legal foundations and consistently implementing them in practice. The study analyzes the Constitution of the Republic of Uzbekistan, laws, Presidential decrees and resolutions, and regulatory legal acts of the Cabinet of Ministers and the Ministry of Internal Affairs, assessing their role, significance, and level of coherence in ensuring the prevention of offenses. Through analysis of the regulatory framework in the field of offense prevention, the article identifies existing problems and shortcomings - duplication of norms, inconsistencies, and the presence of legal gaps - and puts forward scientific proposals and recommendations for their elimination. Additionally, the connection between general (Constitution, international documents) and sector-specific (codes, special laws) legal documents is revealed, and the necessity of codifying the legal basis in the field of prevention is substantiated. In the author's opinion, the legal foundation of offense prevention should be improved not only in accordance with national legislation but also in harmony with international standards and principles ensuring human rights. The research results will serve to further improve legal policy in the field of prevention, strengthen cooperation between state and public institutions, and raise legal awareness and culture.

Keywords: offense prevention, legal foundations, normative legal acts, general legal documents, sector-specific laws, Constitution, codes, international conventions, legal system, codification, legal awareness, prevention policy.

**HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY
VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI****Tillayev Ikrom Rustamjonovich**

O'zbekiston Respublikasi Kriminologik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasini belgilab beruvchi umumiy va sohaviy-huquqiy hujjatlar tizimli tahlil qilingan. Muallif profilaktika faoliyatining samaradorligi, eng avvalo, uning huquqiy asoslarini to'g'ri belgilash va ularni amaliyotga izchil joriy etishga bog'liq ekanini ilmiy asosda yoritib beradi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hamda IIVning me'yoriy-huquqiy hujjatlari tahlil qilinib, ularning huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati va o'zaro uyg'unlik darajasi baholangan. Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi normativ-huquqiy bazaning tahlili orqali mavjud muammo va kamchiliklar — normalarning takrorlanishi, o'zaro nomuvofiqlik va huquqiy bo'shliqlar mavjudligi aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Shuningdek, umumiy (Konstitutsiya, xalqaro hujjatlar) va sohaviy (kodekslar, maxsus qonunlar) huquqiy hujjatlar o'rtasidagi bog'liqlik ochib berilgan hamda profilaktika sohasidagi huquqiy asoslarni kodekslashtirish zarurati asoslab berilgan. Muallifning fikricha, huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy poydevori faqat milliy qonunchilik bilan cheklanmasdan, xalqaro standartlar va inson huquqlarini ta'minlovchi prinsiplar bilan uyg'unlashgan holda takomillashtirilishi lozim. Tadqiqot natijalari profilaktika sohasidagi huquqiy siyosatni yanada takomillashtirish, davlat va jamiyat institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqiy asoslar, normativ-huquqiy hujjatlar, umumiy huquqiy hujjatlar, sohaviy qonunlar, Konstitutsiya, kodekslar, xalqaro konvensiyalar, huquqiy tizim, kodekslashtirish, huquqiy ong, profilaktika siyosati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N56>

Kirish. Har qanday huquqiy faoliyatni samarali tashkil etish va amalga oshirish, avvalo, uning huquqiy asoslarini aniq va mukammal belgilab olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan huquqbuzarliklar profilaktikasida “huquqiy asos” tushunchasi normativ-huquqiy hujjatlar majmui sifatida namoyon boʻladi. Ushbu hujjatlar tizimi profilaktika sohasini tartibga soluvchi normalarni, prinsiplarni va vakolatli subyektlar faoliyatini belgilaydigan qonunchilik asoslarini qamrab oladi.

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: «**Jamiyatda qonun ustuvorligini taʼminlash** – amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni taʼminlashning asosiy kafolatidir»[1], – deb taʼkidlab, barcha islohotlar eng avvalo inson manfaatlariga xizmat qilish uchun qaratilganligiga alohida urgʻu berib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Qonunchilik bazasi nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat siyosatini amalga oshirish vositasi, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini taʼminlovchi huquqiy kafolatlar manbai sifatida ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, huquqbuzarliklar profilaktikasiga daxldor subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning vazifa va vakolatlarini aniq belgilashda normativ asoslar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir normativ-huquqiy hujjatlar tahlili huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi sohaga oid 4 ta qonun, Prezidentimizning 4 ta farmon va 9 ta qarorlari, Hukumatimizning 11 ta qarorlari[2] huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida olib borilayotgan islohotlarning turli davrlarida qabul qilinishi, ushbu normativ-huquqiy hujjatlardagi baʼzi normalar maʼnan eskirgan va ayrimlari oʻzaro nomuvofiqligini, aksariyat normalar takrorlanish xususiyatiga ega boʻlib qolganini va baʼzilarida huquqiy boʻshliqlar mavjudligini koʻrsatmoqda. Bu esa mazkur qonun normalarini qoʻllash va ulardan foydalanishda muammo va kamchiliklarni keltirib chiqarib, faoliyat samaradorligiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Natijada, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonun hujjatlarini tizimlashtirish, aniqrogʻi kodekslashtirish zarurati yuzaga kelgan[3].

Muhokama. Ichki ishlar organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmaga aylantirish maqsadida yaxlit huquqiy tizim yaratilmoqda. Oʻtgan davrda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladigan 9 qonun, Prezidentimizning 13 farmoni va 40 qarori, Vazirlar Mahkamasining 89 qarori hamda 160 dan ziyod idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, ularda belgilangan qoidalar ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini huquqiy asos boʻlib xizmat qiladi[4].

Huquqshunos Xojiyev E., oʻz tadqiqotlarida muayyan faoliyatning huquqiy asoslarini yuridik kuchiga koʻra qonunlar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga ajratadi[5]. Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari tahlili boshqa toifa yuridik manbalarda:[6] a) qonunlar; b) farmonlar; v) qarorlar; g) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar tarzida guruhlashtirilgan. Ayrim tadqiqotlarda: a) Konstitutsiya; b) qonunlar; v) Prezident farmon va qarorlari; g) Vazirlar Mahkamasining qarorlari; d) IIVning normativ-huquqiy hujjatlari kabilarga boʻlib tasniflangan[7].

Yuqoridagi tasniflardan eng mukammali uchinchi tasnif (Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmon/qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, IIV hujjatlari) bo'lib, ushbu tasnif: a) yuridik kuch iyerarxiyasini hisobga oladi; b) har bir darajadagi hujjatning amal doirasini ko'rsatadi; v) huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amaliy va strategik qarorlarni qamrab oladi. Biroq, huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari tasnifini **xalqaro hujjatlarni** ham qo'shish orqali yanada kengaytirish orqali yaxlit tizim yaratish tavsiya etiladi.

Ilmiy tadqiqotlar va nazariy manbalarda keltirilgan huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid huquqiy asoslarning tasnifiga asoslangan holda ular quyidagi yo'nalishlarda bo'lib o'rganiladi:

umumiy huquqiy hujjatlar – inson huquqlari, jamiyat xavfsizligi va huquqiy davlat tamoyillarini tartibga soluvchi umumiy qonunlar va xalqaro normalar;

sohaviy huquqiy hujjatlar – jinoyatchilik, ma'muriy huquqbuzarliklar profilaktikasi va ijtimoiy xavf ostidagi shaxslar bilan individual ishlash sohalaridagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar;

maxsus huquqiy hujjatlar – bevosita huquqbuzarliklar profilaktikasiga bag'ishlangan farmonlar, qarorlari, dasturlar, me'yoriy-huquqiy va sohaviy reglamentlar.

Natija. Yuqoridagilarga asoslangan holda, huquqiy asoslar profilaktik faoliyatni tizimlashtirish, unda qatnashuvchi barcha subyektlar uchun huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biridir.

Birinchi yo'nalish: Ushbu yo'nalishda, avvalo, *umumiy xususiyatga ega bo'lgan huquqiy hujjatlar* tahlil etiladi. Bunday hujjatlar jamiyatdagi huquqiy tartibot, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tamoyillari kabi umume'tirof etilgan qoidalarini o'z ichiga olgan bo'lib, huquqbuzarliklar profilaktikasining falsafiy, ijtimoiy va huquqiy yo'nalishini belgilab beradi. Umumiy huquqiy hujjatlar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasiga bevosita bag'ishlanmagan bo'lsa-da, ularning qoidalari va me'yorlari ushbu sohada amalga oshiriladigan faoliyat uchun umumiy huquqiy asos vazifasini o'taydi. Shu jihatdan, ular nafaqat mazkur sohani umumiy huquqiy muhitda ta'minlaydi, balki profilaktik tadbirlarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini kafolatlashda ham muhim o'rin tutadi.

1) O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasining** 48-moddasida ko'rsatilgan hamma uchun umumiy va teng qonunga rioya etish majburiyati huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatning barcha turlari va darajasiga taalluqlidir. Masalan, 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi"[8]; 15-moddasida "Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar."; 146-moddasida "Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko'rsatishlari mumkin" mazmunida qoidalar belgilangan[9].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi 13, 15 va 146-moddalarda mustahkamlangan qoidalar huquqbuzarliklar profilaktikasining konstitutsiyaviy-huquqiy asosi sifatida muhim o'rin tutadi. Bu normalar faqat deklarativ qoidalar emas, balki profilaktika sohasidagi barcha davlat va jamiyat institutlarining faoliyatini qonuniy asosda yo'naltirib beradi.

Konstitutsiyaning mazkur normalari huquqbuzarliklar profilaktikasining: a) falsafiy (13-modda); b) yuridik va tashkiliy (15-modda); v) ijtimoiy hamkorlik (146-modda) asoslarini belgilaydi. Shu bois, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida ushbu moddalar nazariy poydevor, me'yoriy mezon, va amaliy dasturilamal vazifasini o'taydi.

2) "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi". Masalan, 3-moddasida "Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir" ; 4-moddasida "Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi"; 5-moddasida "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rllovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak"; 6-moddasida "Har bir inson qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'zining huquq subyekti sifatida tan olinishiga haqli" mazmunidagi qoidalar mustahkamlangan[10].

Yuqoridagilarga asoslangan holda ta'kidlash joizki, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da: a) to'g'ridan to'g'ri profilaktika tushunchasi emas, shu faoliyatga asos bo'luvchi qonun ustuvorligi, inson xavfsizligi, ta'lim, ish bilan ta'minlanish, ijtimoiy barqarorlik kabi asosiy prinsiplar belgilangan; b) bu normalar huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, huquqbuzarliklar profilaktikasining xalqaro-huquqiy asosini tashkil etadi.

3) *BMTning jinoyatchilikka qarshi konvensiyalari* bu xalqaro miqyosda uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, odam savdosi, terrorizm va boshqa og'ir huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga qaratilgan **normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi** bo'lib, ular jinoyatlarning oldini olish va profilaktikasida katta ahamiyatga ega.

- "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida" Konvensiya (Palermo konvensiyasi, 2000-yil);

- BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (Merakesh, 2003-yil);

- Narkotik vositalar va psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilishga qarshi kurash to'g'risidagi BMT konvensiyasi (1961, 1971, 1988-yillar — UNSSD, UNODC doirasida);

- Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida xalqaro konvensiya (1999-yil 9-dekabr, Nyu-York).

Yuqoridagi BMT konvensiyalari: a) huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan; b) davlatlarni profilaktik choralar ko'rishga, hamkorlik qilishga va tizimli siyosat yuritishga majbur qiladi; v) huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi xalqaro standartlarni belgilaydi.

4) "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi:

"Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi (1950 yil, Rimda qabul qilingan) – Yevropada inson huquqlarini ta'minlovchi asosiy xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, u huquqbuzarliklar profilaktikasining falsafiy, huquqiy va institutsional asoslarini belgilab beradi[11]. Masalan, 3-moddasida (qaytarilmas huquq): "Hech kim qiynoqqa solinmasligi yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yo tahqirlovchi muomala yo jazoga duchor etilmasligi lozim." Bu norma faqat jazo berishda emas, balki huquqbuzarliklarning oldini olishda insonparvar yondashuv talab etilishini belgilaydi.

Yuqoridagilarga asoslanib, Yevropa Konvensiyasining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ahamiyati: a) inson huquqlari ustuvorligini ta'minlash orqali profilaktikaning mohiyatini belgilaydi; b) davlat organlarining profilaktika faoliyatini qonun doirasida va

insonparvarlik asosida tashkil etishni talab qiladi; v) fuqarolarni asossiz tazyiqlardan himoya qilish va huquqiy himoya vositalaridan foydalanish huquqini kafolatlaydi; g) Yevropa inson huquqlari sudi orqali profilaktika choralari ustidan xalqaro nazoratni ta'minlaydi.

Ikkinchi yo'nalish: Sohaviy huquqiy hujjatlar — bu muayyan sohadagi (masalan, jinoyatchilik, ma'muriy huquqbuzarliklar, ijtimoiy xavf ostidagi shaxslar bilan ishlash) munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy aktlar bo'lib, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining muhim bo'g'inini tashkil etadi.

Sohaviy huquqiy hujjatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasida: a) profilaktikaning tartibga solingan, tizimli va huquqiy asosli faoliyat bo'lishiga xizmat qiladi; b) har bir sohadagi (jinoiy, ma'muriy, ijtimoiy) xavfni aniqlash, baholash va yo'naltirishga qaratilgan mexanizmlarni yaratadi; v) fuqarolarni xabardor qilish va huquqiy madaniyatini shakllantirish orqali jinoyatlar va huquqbuzarliklar xavfini kamaytiradi; g) davlat va jamiyat institutlarining funksional o'zaro hamkorligini ta'minlaydi, bu esa samarali profilaktikada hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sohaviy huquqiy hujjatlar: a) kodekslar; b) qonunlar; v) qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar; g) buyruq va nizomlarga bo'lib quyidagicha tasniflandi:

Birinchi: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi, hamda Jinoyat-ijroiya kodeksi — huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi asosiy sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu kodekslar nafaqat huquqbuzarlik sodir etilganidan so'ng qo'llaniladi, balki jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olishda ham muhim huquqiy asos va vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan:

1) O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi roli: a) jinoyat tushunchasi, turlari, tarkibiy alomatlar va javobgarlik asoslarini belgilaydi; b) jinoyatlarni sodir etishga olib keluvchi holatlar va shaxslarni tavsiflash orqali ehtimoliy xavfni aniqlash imkonini yaratadi; v) javobgarlikning muqarrarligi tamoyili jinoyat sodir etish niyatidagi shaxslarga nisbatan seskantiruvchi ta'sir qilishida namoyon bo'ladi.

2) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi huquqbuzarliklar profilaktikasidagi roli: a) jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan oqilona va qonuniy munosabat orqali jinoyatni takrorlamaslikka undaydi; b) jinoyat ishlari yuritilishi jarayonida jamoatchilikni xabardor qilish, shaffoflik orqali profilaktik ta'sir yaratadi; v) ehtimoliy jinoyatchilarni ishonchsiz dalillar bilan ta'qib qilishdan himoya qiladi, bu esa inson huquqlarini kafolatlaydi va jamiyatda ishonch muhitini yaratada namoyon bo'ladi.

3) O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi roli: a) jinoyatga aylanishi mumkin bo'lgan holatlarga dastlabki ta'sir choralari joriy etadi; b) "Ogohlantirish", "ma'muriy nazorat", "ma'muriy qamoq" kabi choralar orqali jinoyatlarning oldini olish imkonini yaratadi; v) "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun bilan o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritilishida namoyon bo'ladi.

4) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi roli: a) jazo ijrosi jarayonida shaxsda yana jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi; b) eks-mahkumlarni jamiyatga qayta moslashtirish orqali ularning takroriy huquqbuzarlik sodir etishining oldini oladi; v) retsidiv jinoyatchilikka qarshi profilaktik ta'sirni amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi: O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida", "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida", "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida", "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida", "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida", "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida", "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunlar huquqbuzarliklar profilaktikasining mustahkam huquqiy asosini tashkil etadi. Ular nafaqat muayyan jinoyat turlari bilan kurashishni, balki jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish hamda aholi o'rtasida huquqiy ong va madaniyatni oshirishni ham ko'zda tutadi.

Quyida har bir qonunning huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asosi sifatidagi ahamiyati qisqacha tahlil qilinadi:

1) *"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni (2014 y.) o'ziga xos bazaviy huquqiy asos hisoblanadi.* Unda: a) huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha subyektlar, ularning vakolatlari, profilaktika turlari (umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik), profilaktik tadbirlar mazmuni aniq belgilangan; b) huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy sabablarini bartaraf etishga qaratilgan davlat siyosati asoslarini belgilaydi.

2) *"Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni (2010 y.):* a) voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda maqsadli profilaktik yondashuvni ta'minlaydi; b) bolalarni nazorat qilishda ota-ona, ta'lim muassasalari, IIO va boshqa idoralarning o'zaro hamkorligi belgilab qo'yilgan; v) nazoratsizlik holatlarini bartaraf etish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (2019 y.): a) gender asosidagi zo'ravonlik va tajovuzlarga qarshi kurashish orqali ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi; b) xotin-qizlarni himoya qilish, ularning huquqiy va psixologik yordam olishi profilaktikaning muhim qismi sifatida belgilangan.

3) *"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (2017 y.):* a) korrupsiya – ijtimoiy xavf darajasi yuqori bo'lgan huquqbuzarlik sifatida, uning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi; b) korrupsiyaning profilaktikasi, axloqiy standartlar, manfaatlar to'qnashuvi, xabar berish tizimi kabi mexanizmlarni joriy etadi.

4) *"Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (2018 y.):* a) Ekstremistik faoliyatning barvaqt aniqlanishi va uning ildizigacha bartaraf etilishi, jumladan, yoshlar orasida radikal qarashlarning tarqalishini to'xtatishda muhimdir; b) ekstremizmni "profilaktik tahdid" sifatida aniqlab, ijtimoiy-ma'rifiy choralarni belgilaydi.

5) *"Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (2000 y.):* a) terrorizm profilaktikasi milliy xavfsizlik, huquqiy tartibot va tinchlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega; b) qonun orqali preventiv (oldini oluvchi) tadbirlar, ma'lumotlar almashinuvi, idoralararo hamkorlik belgilab qo'yilgan.

6) *"Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi Qonun (2019 y.):* a) jazodan ozod qilingan shaxslarning qayta huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish uchun ma'muriy nazorat choralari nazarida tutadi; b) Reintegratsiya (qayta jamiyatga moslashish) jarayonida nazorat va ijtimoiy yordam mexanizmlari joriy etilgan.

7) *“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun (2014 y.):* a) huquqbuzarliklar profilaktikasida faqat davlat emas, NNT, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari ishtirokini ta‘minlaydi; b) davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional shaklga soladi, bu esa profilaktikaning samaradorligini oshiradi.

8) *“Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to‘g‘risida”gi Qonun (2023 y.):* a) narkotik moddalarga qaramlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini ta‘minlaydi; b) profilaktikada to‘g‘ri tashxis qo‘yish, davolash, rehabilitatsiya, jamiyatga moslashtirish kabi bosqichlarni qamrab oladi.

9) *“Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun (2016 y.):* a) IIO – huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy subyektlaridan biri; b) qonun ularning profilaktik vakolatlari, majburiyatlari, hamkorlik mexanizmlari va fuqarolar bilan ishlash uslublarini belgilaydi.

Xulosa. Ushbu qonunlar huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslarini mustahkamlab, turli toifadagi xavf guruhlari bilan maqsadli ishlash, jinoyatchilikni barvaqt aniqlash va jamiyatda huquqiy ongni shakllantirish orqali umumiy jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi. Ular huquqiy tizimda kompleks yondashuvni ta‘minlaydi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir: Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberaldemokratik partiyasining VIII syezdidagi ma‘ruza. 2016-yil 2-noyabr//Xalq so‘zi.– 2016. – 3 noyab.
2. Abdullayev B.T. Huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari // Huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari: nazariya, amaliyot va qonunchilik tahlili: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2022-yil 31-mart). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 478 b.
3. Xo‘jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari misolida): yurid. fan. bo‘yicha fal. d-ri. ... dis. – T., 2018. – B.17,37, 42,44, 45,47.;
4. «El tinchligini ta‘minlash, barqarorlikni saqlash yo‘lida xodimlarimiz o‘z hayotini ham ayamaydi» – Po‘lat Bobojonov bilan katta intervyu// <https://uza.uz/uz/posts/ichki1-ishlar-vaziri-el-tinchligini-taminlash-bar-arorlikni-s-15-08-2020>.
5. Xojiyev E. Davlat boshkaruvi: Ilmiy-ommabop risola. - T., 2006. - B. 171.
6. Profilaktika inspektorlari faoliyatining huquqiy asoslari va ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorligi: O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – B.66.; Saitqulov Q.A. Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini tashkil etish: O‘quv-amaliy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B.123. Ismailov I., va boshqalar Ichki ishlar organlarining profilaktika faoliyati. Mas ‘ul muharrir Sh.T.Ikramov. Darslik. IIV Akademiyasi.2015.–B.326.; Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyati: Ma‘ruzalar kursi / A.S.Tursunov va boshq. – T., 2018. – B.100-113.; Xo‘jaqulov S.B. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati: O‘quv qo‘llanma. – T., 2017. – B.107-108.
7. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: yurid. fan. d-ri. ... dis. – T., 2006. – B.48. Muxtorov J.S. Ichki ishlar idoralari profilaktika xizmatlari tomonidan jinoyatlarning oldini olishni ta‘minlash: yurid. fan. nomz.

- ... dis. –T., 2009. – B.148.; Xo'jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari misolida): yurid. fan. bo'yicha fal. d-ri. ... dis. – T., 2018. – B.17,37, 42,44, 45,47.; Saitqulov Q.A. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish: yurid. fan. bo'yicha fal. d-ri. ... dis. – T., 2020. – B.44.; Eshnazarov M.J., Huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari misolida): yurid. fan. bo'yicha fal. d-ri. ... dis. – T., 2022. – B.56.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://constitution.uz/uz/clause/index>.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://constitution.uz/uz/clause/index>.
10. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi// <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
11. "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi //Ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalist va blogerlar uchun sohaga oid qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan huquqiy qo'llanma. «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi, 2025 y. – 71b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).